

Mahallalarda yoshlarning komil shaxs sifatida rivojlantirishning ijtimoiy psixologik omillari

Dilafruz Sharifovna Baratova

j.s.ostonov@gmail.com

Buxoro Psixologiya va xorijiy tillar instituti

Annotatsiya: Ushbu maqola Mahallalarda yoshlarning komil shaxs sifatida rivojlanishining ijtimoiy psixologik omillari ochib berilgan.

Kalit soʻzlar: psixologik xizmat, ijtimoiy psixologiya, emotsional holatlar, motivatsiya, komil inson, refleksiya.

Socio-psychological factors of development of young people as a whole person in the community

Dilafruz Sharifovna Baratova

j.s.ostonov@gmail.com

Bukhara Institute of Psikhology and Foreign Languages

Abstract: This article reveals the social psychological factors of the development of young people as mature individuals in the neighborhoods.

Keywords: psychological service, social psychology, emotional states, motivation, perfect man, reflection.

Jahonda ijtimoiy farovonlikni ta'minlashga xizmat qiladigan, innovasion usullar bilan qurollangan psixologik xizmatning tashkil etilishi bo'yicha zamonaviy strategiyaga asoslangan texnologiyalar amaliyotga tatbiq etilgan. Jumladan, Xalqaro psixologiya fanlari akademiyasi (Yaroslavl) talablariga muvofiq psixologik xizmatni tashkil etish va rivojlantirishning ilg'or prinsiplari muntazam ravishda takomillashib bormoqda. Shu jihatdan psixologik xizmat va uni bevosita amalga oshirish mexanizmlarini takomillashtirish, psixologik xizmatning shaxs ijtimoiylashuviga ko'rsatadigan ta'siri, psixoprofilaktik ishlarning modeli va tuzilmasini ishlab chiqish hamda uning ijtimoiy-psixologik istiqbollari nazariy va empirik jihatdan tadqiq qilish masalalari bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Jahon ta'lim va ilmiy tadqiqot muassasalarida psixologik xizmat muammolarini o'rganish bo'yicha izlanishlar olib borilmoqda. Jumladan, Yunesko tashkiloti qoshidagi Xalqaro psixologiya fanlari ittifoqi - IUPSYS (International Union of Psychological Science) tomonidan 2016-2021 yillarga mo'ljallangan psixologik

xizmat konsepsiyasi yaratildi. Shu jihatdan aholining turli guruhlaridagi muammolarning kelib chiqishiga sabab bo'luvchi ijtimoiy-psixologik omillarni hududlar kesimida tizimli ravishda o'rganish, professional darajada psixologik tavsiyalar bera oluvchi psixologlar faoliyatini takomillashtirish, psixologik xizmatning shaxs ijtimoiylashuviga ko'rsatadigan ta'sirini yoritish, muayyan jamiyatning shaxs shakllanishiga ta'sirini o'rganuvchi psixodiagnostik metodikalarni va aholining turli guruhlariga psixologik xizmat ko'rsatishning ijtimoiy-psixologik mexanizmlarini ishlab chiqish kabi tadqiqotlarga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Respublikamizda amalga oshirilayotgan barcha islohotlar sharoitida mahallada istiqomat qiluvchi har bir shaxsning o'ziga xos ijtimoiy-psixologik taraqqiyotini ta'minlash, mahallalardagi oilalarda ota-ona va farzandlar, er va xotin, qaynona va kelin o'rtasidagi munosabatlarni yaxshilash, ular orasidagi nizoli, og'ir turmush sharoitini amaliy hal qilish mexanizmlarini joriy etish, ularga ko'rsatiladigan ijtimoiy-psixologik xizmatni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash bo'yicha ilmiy asoslangan konsepsiyalarni ishlab chiqishga katta e'tibor berilmoqda. "Bir ziyoli - bir mahallaga ma'naviy homiy" tamoyili asosida har bir mahallaga professor-o'qituvchi va taniqli ziyolilar biriktirilishi ma'lum qilindi. Bu borada davlatimiz tomonidan jamiyatning kichik bo'g'ini bo'lgan oilalardagi ma'naviy sog'lom muhitni yaratishda mahallaning ta'sirini kuchaytirishga katta e'tibor qaratilayotgan davrda mahalla aholisining turli guruhlariga psixologik xizmat ko'rsatishning ijtimoiy-psixologik mexanizmlarini ishlab chiqish yuzasidan ilmiy izlanishlarni chuqurlashtirishga imkoniyatlar yaratildi.

Psixologik xizmat yo'nalishining nazariy-ilmiy va metodologik asoslari umumiy psixologiya fani shakllanishi bilan bog'liq uzoq tarixiy ildizlarga borib taqaladi. Qolaversa, psixologik xizmat jarayoni dastlabki psixologik tushunchalarning paydo bo'lish va rivojlanish davrlari bilan bevosita bog'liqdir.

Umuman, tibbiyot, fiziologiya, fizika, mantiq, falsafa, antropologiya sohalaridagi yangi yangi kashfiyotlar inson psixologik holatini adekvat tushunish va talqin qilish bo'yicha muayyan ilmiy yondashuvlarni shakllantirdi. Jumladan, rimlik shifokorlar Gippokrat (er.o. V asr), Galen (er.o. II asr), Demokrit (er.o. V-VI asr), Epikur (er.o. IV-III asr), Demokrit (er.o. V-IV asr), Sokrat (er.o. V-IV asr) kabi mutafakkirlarning mushohadalari dastlabki psixologik xizmat tushunchalarining shakllanishiga turtki bo'ldi. Qolaversa, dastlabki "psixika", "ong" tushunchalari tibbiy fiziologik bilimlar bilan bir muncha sayqal topdi. Ayni paytda, fransuz olimi R.Dekard (1596-1650) tomonidan individ xulq atvorining reflektorlik tabiatiga xos jihatlarning ilk bor kashf etilishi va uning keyinchalik rus olimlari I.S.Sechenov va I.P.Pavlovlar tomonidan o'ziga xos ilmiy asoslar bilan rivojlantirilishi insonning psixologik ta'sir doiralarini belgilashda muhim ahamiyat kasb etdi.

Binobarin, ingliz faylasufi, pedagogi va empirik psixologiya asoschisi Jon Lokk (1632-1704) barcha bilimlarning tajribadan kelib chikishi haqidagi psixologik qoidani

ilgari surdi. Chunki, u ruhiy hayotning muayyan omillari, oddiy hodisalardan murakkab hodisalarga o'tish yo'llarini ilmiy jihatdan izohlab berishga urindi. Lokkning fikricha, tajribaning ikkita manbai bor: biri tashqi sezgi a'zolarining faoliyati (tashqi tajriba) va ikkinchisi o'zining xususiy ishini idrok etuvchi aqlning ichki faoliyati (ichki tajriba)dir. Kishi hech qanday g'oyalarga ega bo'lmagan holda dunyoga keladi. Uning ruhi - «toza taxta» (tabula rasa) bo'lib, keyinchalik unga tajriba yozuvlari bitiladi. Tajriba oddiy va murakkab g'oyalardan tarkib topadi. Bu g'oyalar yo sezgilardan, yo ichki idrok (refleksiya)lardan hosil bo'ladi. Ikkinchi holatda ong real narsalarga emas, balki o'z xususiy mahsuliga yo'naltirilib, o'zi bilan o'zi bo'lib qoladi. Jon Lokkning refleksiya ta'limoti («refleks» tushunchasi bilan aralashtirib yubormaslik kerak) kishi psixologik dalillarni (fizika dalillaridan farqli o'laroq) introspektiv tarzda bilib oladi, degan taxminga asoslangan edi.

Keyinchalik I.M.Sechenovning «Bosh miya reflekslari» (1863) asaridagi «ongli va ongsiz hayotning barcha harakatlari ro'y berish usuliga ko'ra reflekslardan iboratdir», degan xulosasi psixologik xizmat fanining fiziologik tamoyillarini ilmiy jihatdan asoslashga xizmat qildi. Zero, onging harakati (psixik hodisa) ruhning tanasiz mohiyat xususiyati emas, balki Sechenov tili bilan aytganda, «ro'y berish usuliga ko'ra» refleksga o'xshash jarayondir. Psixik hodisa kishiga o'z sezgilarini, g'oyalarini, his-tuyug'ularini kuzatish chog'ida beriladigan narsalardangina iborat emas. U xuddi refleks kabi tashqi qo'zg'ovchining ta'sirini va unga javoban harakat aks ta'sirini ham o'z ichiga oladi.

Mazkur konsepsiya psixologik xizmat metodologiyasini yaratishda muhim o'rin egallashi bilan ham ahamiyatlidir. Qolaversa, psixologik xizmat ko'rsatish tizimi ta'sir ko'rsatuvchi ob'ektlari bo'lgan sub'ektning ichki, psixik holatiga tashqi taassurotlar natijasida ro'y beradigan o'zgarishlar jarayoni qanday kechishini o'rganadi. U aks etuvchi narsaning sub'ektning faoliyatini boshqarishni, rejalashtirishni, javob faoliyatini yo'naltirishni ta'minlaydigan o'sha in'ikosga aylanish jarayonini amalga oshirishga yordam beradigan mexanizmlarni tadqiq qiladi.

Psixologik xizmat tarixida ong va uning shaxs faoliyatidagi o'rniga ahamiyat qaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, kishining ongi bizning tevarakatrofimizni qurshab turgan olam haqidagi bilimlar majmuasidan tarkib topgan. Unda sub'ekt bilan ob'ekt o'rtasida aniq farqlanishining o'z ifodasini topishi, ya'ni odam «Men» degan tushuncha bilan «Men emas» degan tushunchaga nima tegishli ekanini aniq biladi. Tirik organizmlar dunyosi tarixida birinchi bo'lib undan ajralib chiqqan va o'zini atrof muhitga qarama-qarshi ko'rgan inson o'z ongida ushbu qarama-qarshilik va tafovutni saqlab kelmoqda. Jonli mavjudotlar ichida uning o'zigina o'zini bilishga, ya'ni psixik faoliyatni o'zini tadqiq etishga yo'naltirishga qodir. Odam o'z xatti-harakatlarini va umuman o'zini o'zi ongli ravishda baholaydi. «Men»ning «Men emas»dan ajratilishi xar bir kishi bolaligida boshdan kechiradigan yo'l bo'lib, uning

o'zini o'zi anglashi jarayonida yuz beradi. Bu jarayonga esa unga psixologik xizmat ko'rsatishda muhim ijtimoiy omil sifatida qarashni taqozo etadi.

Bugungi kunda aynan psixologik xizmat muammosiga bag'ishlangan va uning barcha yo'nalishlarini batafsil bayon etishga qodir ilmiy adabiyotlar yetarli bo'lmasada, bugungi kunda fan olamida va jamiyat taraqqiyotida psixologik xizmat muammosining zarurligini ko'rsata oluvchi va uning "metodologik ildizlarini" asoslab bera oluvchi ilmiy tadqiqotlarni alohida qayd etish mumkin.

Umuman, mahallada psixologik xizmat borasida hanuzgacha aniq va mukammal tarzda ishlab chiqilgan va rasmiy tarzda tan olingan yagona ilmiy yo'nalish yoki konsepsiyaning qabul qilinmaganligi ayon bo'lsa-da, ilg'or g'arb psixologlari, Markaziy hamdo'stlik Davlatlari psixologlari hamda O'zbekiston psixologlari tomonidan olib borilgan va olib borilayotgan tadqiqotlar mavjudki, ular qaysidir jihati bilan psixologik xizmat modeli, mohiyati, ahamiyati, va ijtimoiy istiqbollari haqidagi ilmiy-amaliy tasavvurlarimizni shakllantirishga asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Chunonchi, g'arbda yaratilgan kognitivizm doirasidagi nazariyalar psixologik xizmat metodologiyasi uchun muhim ahamiyatga ega. Chunonchi, L.Festingerning kognitiv dissonanslar nazariyasi (insonning faoliyat ob'ektiga nisbatan xulq-atvori yoki munosabatini ongli ravishda o'zgartirishga asoslangan), T.Nyuxomning hamkorlik kommunikativ nazariyasi (o'zgalarga va umumiy faoliyat ob'ektiga ijobiy munosabatlarni tarkib toptirishga asoslangan), Ch.Osgud va P.Tanenbaumaning "kongruentlik" (inson kognitiv tuzilishi asosidagi ob'ektni baholashga qaratilgan) nazariyasi, G. Olport, A. Maslou, K.Rodjersning gumanistik psixologiya nazariyalarini alohida ta'kidlash mumkin. Yana shuni qayd etish kerakki, amerikalik taniqli psixolog Abraham Xarold Maslouning "Insonga bir butun yondashuv konsepsiyasi" psixologik xizmat jarayonida insonni tushunish va ijtimoiy motivasion rivojlantirish muammosi ustida tadqiqotlar olib borilishi uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Maslouning fikricha, insonning barcha tug'ma salohiyat imkoniyatlari faqatgina ijtimoiy shart-sharoitning yaratilishi bilan ro'yobga chiqishi va kamol topishi mumkin. Albatta, mazkur fikrlarning ne chog'liq haqiqat ekanligini bugungi kunda har bir insonning o'ziga xos va uning ijtimoiy taraqqiyotini ta'minlashga xizmat qiluvchi imkoniyatlari ko'lamini o'rganish va tarbiyalashni asosiy vazifa qilib olgan psixologik xizmatning tashkil etilishini muntazam kuzatishlarimiz natijalari tasdiqlab turibdi.

“Yoshlarning oila qurishdan oldin psixolog huzuriga borishi zarur, deb hisoblaysizmi?” - savoliga olingan javoblar haqida ma'lumot (n=226)

Viloyat hududlari	“Ha”	“Yo‘q”	Jami n=
Buxoro viloyati	43	5	48
Toshkent viloyati	49	2	51
Navoiy viloyati	72	3	75
Qashqadaryo viloyati	48	4	52
Jami n=	212	14	226

Mazkur javoblar izohi shuni tasdiqlaydiki, demak, mahalla tizimi shaxs ruhiyati bilan bog‘liq keng ko‘lamli muammolar majmuasini o‘z ichiga olganligi bois bugungi kunda mahallada yashovchi aholining turli guruhlariga psixologik xizmat ko‘rsatilishi shart va zarur ekan yuqoridagi nazariy tahlillarga asoslanib mazkur muammo yechimlari bo‘yicha quyidagilarni alohida takidlash joiz.

1. XX asrga kelib psixologlar o‘zlarining navbatdagi jahonshumul ilmiy maqsadlari - insonga, ayni paytda, jamiyatga psixologik xizmat ko‘rsatish tizimining muqarrarligini nazariy-ilmiy jihatdan asoslab berishga muvaffaq bo‘ldilar.

2. O‘zbekistondagi psixologik xizmatning bugungi holatiga ilmiy-tashkiliy nuqtai nazaridan baho berar ekanmiz, bu borada talaygina yutuqlar, kamchiliklar va tez orada bartaraf etilishi lozim bo‘lgan muammolar mavjudligini ko‘ramiz.

3. Mahalla asrlar osha shakllangan sharqona o‘zini o‘zi boshqarish tizimidir. Shu boisdan keyingi paytlarda uning faoliyati samaradorligini har tomonlama oshirish va rivojlantirishga, moddiy-texnik bazasini mustahkamlab, jamiyatdagi nufuzini yanada ko‘tarishga, tashkiliy-huquqiy asoslarini mustahkamlashga jiddiy ahamiyat berildi. Darhaqiqat, mahalla institutini takomillashtirish borasidagi chora-tadbirlar tub mazmun-mohiyatiga ko‘ra Vatanimiz taraqqiyotiga, aholi turmush farovonligini yanada yaxshilashga, fuqarolar yig‘inlari ishini yuqori darajada tashkil etishga xizmat qiladi.

4. Mahallada, oilaga psixologik xizmat ko‘rsatish jarayonida turli yoshlardagi va turli toifalardagi oilalarga oilaviy hayot bilan, oiladagi shaxslararo munosabatlar bilan, turli xil ziddiyatlar bilan bog‘liq barcha vaziyatlarni tahlil qilishda va ijobiy tomonga yo‘naltirishda ko‘maklashiladi.

5. Mahallada oilaviy hayot, mehnat, kattalar va kichiklar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar, axloqiy-ma‘naviy qiyofalari, ota-onalarning siyosiy va ma‘naviy saviyalari, ularning iqtisodiy ta‘minlanganligi, turli ko‘rinishdagi faoliyatlari, vaqtni to‘g‘ri rejalashtirish, yashash sharoitlari va boshqalar oilaviy tarbiya samaradorligini ta‘minlovchi omil sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Yuqorida qayd etilgan barcha fikrlarning haqqoniyligini tasdiqlash uchun bugungi ijtimoiy psixologiyaning empirik taraqqiyotiga xizmat qiluvchi muayyan validligi yuqori bo‘lgan zamonaviy metodlarni tanlash, saralash va ularni mazkur tadqiqotimiz maqsadiga mos ravishda qo‘llash orqali mahallalarda aholining turli guruhlaridan empirik ma‘lumotlar olish va shu ma‘lumotlar asosida tegishli ilmiy - amaliy tasavvurlarimizni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi, deb o‘ylaymiz.

Shu nuqtai nazardan, dastlabki ilmiy adabiyotlar tahlili va ilmiy - tadqiqiy kuzatishlarimizga asoslangan mulohazalarimiz bugungi kunda aholining turli guruhlariga aniq maqsadga yo‘naltirilgan metodikalarni qo‘llash orqali psixologik xizmat ko‘rsatishning nihoyatda muhim ekanligini ko‘rsatmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. ШР Баротов. Психологик хизмат: Магистрлар учун дарслик. Т.:“Наврўз” нашриёти 344
2. ШР Баротов, М Баротова. Психологическая служба образования: от теории к практике
3. Баротов, Ш. Р. (1995). Ўқувчи шахсини ўрганиш усуллари.
4. Баратов, Ш. Р. (2020). Из опыта внедрения концепции психологической службы в Узбекистане. Психология. Илмий журнал.–Бухоро, (1), 6-14.
5. Elov Z.S. Berdiyeva D.Sh. Psychological reasons for suicide motivation in adolescents with deviant behavior. Oriental renaissance: innovative, educational, natural and social sciences scientific journal. volume 2, issue 2 February 2022 1003-1009
6. Elov Z.S. O‘smirlik davrida shaxs xulq-atvorida kuzatiladigan reaksiyalarning psixologik ta’siri. science and education scientific journal volume 3, issue 3 march 2022 442-447
7. Elov Z.S. Psixodiagnostika va eksperimental psixologiya. O‘quv-metodik qo‘llanma. 2021. Buxoro 1-164.
8. Elov, Z. S. (2016). Researches of the Reasons Conditions. Fastors of Suicide Rick Intellectual Archive, 5(1), 49-53.
9. Elov, Z. S. (2022). O ‘smirlik davrida shaxs xulq-atvorida kuzatiladigan reaksiyalarning psixologik ta’siri. Science and Education, 3(3), 442-447.
10. EZ Sattarovich. CONDITIONS AND THE REASONS OF CASES OF THE SUICIDE AMONG THE STAFF OF LAW-ENFORCEMENT BODIES. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol 5 (3) 2017
11. Furqatovich, U. F., & Sattarovich, E. Z. (2022). SUICIDE–AS A GLOBAL PROBLEM FACING HUMANITY. Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 3(02), 349-354.
12. Jo‘Rayeva, Z. A., & Maxmudova, Z. M. (2022). Sudga oid psixologik ekspertizani tashkil qilish va uni o‘tkazishning o‘ziga xosligi. Science and Education, 3(4), 1916-1922.
13. Olimov L.Ya, Avezov O.R., Baratov Sh. R. Psixologiya nazariyasi va tarixi (o‘quv qo‘llanma) <https://library.sammi.uz/Library/> 1 (1), Ўзбекистон
14. Olimov L.Ya, Baratov Sh. R. АВЕЗОВ О.Р. Psixologiya nazariyasi va tarixi. Darslik. “O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati” nashriyoti. Toshkent. 2019. -B. 494.
15. Olimov L.Ya. Shaxs psixologiyasi. “Durdona” nashriyoti. Buxoro. 2019. -B. 280.
16. Olimov L.Ya. Xulqi o‘gishgan bolalar psixologiyasi. Darslik. Buxoro, “Durdona”. 2019. – 460.

17. Olimov, L. (2020). ЛЯ психологической защита: ПСИХОЛОГИК ҲИМОЯ МЕХАНИЗМЛАРИНИНГ ИЖТИМОЙ ПСИХОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 2(2).

18. Olimov, L. (2021). maqola СТРЕССЛИ ВАЗИЯТЛАРДА ПСИХОЛОГИК ҲИМОЯ МЕХАНИЗМЛАРИ ВА КОПИНГ ХУЛҚ-АТВОР НАМОЁН БЎЛИШИНИНГ ИЖТИМОЙ ПСИХОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ: СТРЕССЛИ ВАЗИЯТЛАРДА ПСИХОЛОГИК ҲИМОЯ МЕХАНИЗМЛАРИ ВА КОПИНГ ХУЛҚ-АТВОР НАМОЁН БЎЛИШИНИНГ ИЖТИМОЙ ПСИХОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 7(7)..

19. Qizi, S. M. Z., & Sattorovich, E. Z. (2022). PRIORITIES OF PSYCHOLOGICAL SERVICES IN PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS. Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 3(3), 900-904.

20. UFF Elov Ziyoddullo Sattorovich. SUICIDE – AS A GLOBAL PROBLEM FACING HUMANITY. WEB OF SCIENTIST: INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH JOURNAL 1 (Volume 3 ...

21. Yarashovich, O. L. (2020). O'smirlarning ba'zi dinamik xususiyatlari kontekstida kurashish xatti-harakatlarini o'rganish xususiyatlari. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 1(1).

22. ZM Maxmudova, AZJKYK Olimov, L Ya. Psixodiagnostika va eksperimental psixologiya. "Durdona" nashriyoti. Buxoro. 2021

23. қизи Расулова, М. Б., & Олимов, Л. Я. (2022). ЎСМИР ШАХСИ РИВОЖЛАНИШИДА АҲЛОҚИЙ НОРМАЛАР МУАММОСИНИНГ ҲОЗИРГИ ЗАМОН ПСИХОЛОГИЯСИДА ТАДҚИҚ ЭТИЛИШИ. ТАЪЛИМ ВА РИВОЖЛАНИШ ТАҲЛИЛИ ОНЛАЙН ИЛМИЙ ЖУРНАЛИ, 2(3), 204-207.

24. Махмудова З.М., Олимов, Л. Я. (2021). ЭКСТРЕМАЛ ВАЗИЯТЛАРДА КОПИНГ ХУЛҚ-АТВОР ВА СТРАТЕГИЯЛАР НАМОЁН БЎЛИШИНИНГ ИЖТИМОЙ ПСИХОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 1(1).

25. Олимов Л.Я., Махмудова З.М. Психологические механизмы девиантного поведения. Психология XXI века. Ярославль., 2020. –С. 125-127.

26. Олимов Л.Я., Махмудова З.М. Стрессли вазиятларда психологик ҳимоя механизмлари ва копинг хулқ-атвор намоён бўлишининг ижтимоий психологик хусусиятлари: стрессли вазиятларда психологик ҳимоя механизмлари. Psixologiya ilmiy jurnali. 2020 yil, 4 son 109-115 b.

27. Олимов Л.Я., Махмудова З.М. Ўсмирларда психологик ҳимоя механизмларининг намоён бўлишининг ўзига хослиги. Psixologiya ilmiy jurnali. 2021 yil, 4 son 103-112 b.

28. Олимов Л.Я., Махмудова З.М. Ўсмирларда психологик ҳимоя механизмларининг намоён бўлишининг ўзига хослиги. XXI аср психологияси 1 (1), Ўзбекистон

29. Олимов Л.Я., Махмудова З.М. Экстремал вазиятларда копинг хулқ-атвор ва стратегиялар намоён бўлишининг ижтимоий психологик хусусиятлари. Psixologiya ilmiy jurnali. 2021 yil, 3 son 98-106 b.

30. Олимов Л.Я., Эшов Э.С. Авезов О.Р. Девиант хулқ-атвор психологияси. "Durdoni" nashriyoti. Buxoro. 2019. -В. 420.

31. Олимов, Л. Я. (2020). Olimov ГЛОБАЛЛАШУВ ШАРОИТИДА АХБОРОТ-ПСИХОЛОГИК ХАВФСИЗЛИКНИ ТАЪМИНЛАШ. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz), 2(2).

32. Элов, З. С. (2014). Теоретические основы суицидального поведения. Psixologiya, 4, 16.

33. Элов, З. С. (2015). Суицидал уринишларни содир этишга сабаб бўлувчи асосий омиллар (Ички ишлар органлари ходимлари мисолида). Psixologiya, 2, 18.

34. Mahmudova, Z. M., & Olimov, L. Y. (2021). Social psychological characteristics of psychological defenses manifested in adolescents in extreme situations. Вестник интегративной психологии журнал для психологов, (22), 233-237.

35. Олимов, Л. Я., & Махмудова, З. М. (2021). Психодиагностикани автоматлаштириш ва фанни ўқитишда инновацион педагогик ва ахборот-коммуникацион технологиялардан фойдаланишнинг ўзига хослиги. Масофавий таълимни ташкил этишнинг педагогик-психологик жиҳатлари мавзусидаги Республика илмий-амалий анжуман материали. Тошкент, 489-493.